



XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI

QISHLOQ INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH LOYIHASI

**SIRDARYO VILOYATI XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI
QAYTA TA’MIRLASH SUBLOYIHASI**

**ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI
(AMIBR)**

**“Sirdaryo viloyati loyiha ishlab
chiqarish boshqarmasi” MCHJ
tomonidan tayyorlandi**

**Sirdaryo
Aprel, 2022 yil**

XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI

MUNDARIJA

MUNDARIJA	2
QISQARTMALAR VA LUG'AT	3
UMUMIY MA'LUMOT	4
Loyihaning umumiy qoidalari	4
Subloyiha	4
Subloyihaning manzili	4
Subloyiha tavsifi	5
Loyiha toifasi	5
Loyihaning atrof-muhitga ta'siri	6
Jamoatchilik muhokamalari	6
Institutsional model.....	6
Qonun va qarorlar	8
ISH KO'LAMI VA ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY MUHITGA TA'SIRI.....	10
Loyihaning atrof-muhitga ta'siri	13
Ekologik ta'sirlar.....	13
Ijtimoiy Ta'sirlar.....	14
Yer uchastkasini olish va ko'chirish ta'siri.....	14
QURILISH PAYTIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRLAR VA ZARUR YUMSHATUVCHI CHORA-TADBIRLAR	15
Qurilish bosqichi	15
EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI YUMSHATISH REJASI	21
MONITORING REJASI.....	35
SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI (SHKCHM).....	42
ILOVALAR	44
Illova-1. Xovos tumani xokimligining 2021 yil 14 sentyabrdagi 1/01-59- sonli bayoni.....	44
Illova- 2. Davlat ekologiya ekspertizaasining 2022 yil 16 martdagi 10/137-tonli xulosasi.....	47
Illova-3. Hududiy nazorat inspeksianing Texnik xisoboti va foto suratlar.....	49
Illova-4. Qurilish ishlarini amalga oshirish uchun asosiy hujjatlar	54
Illova-5. Ekologik skrining formalari.....	60
Illova-6. Ko'chirish va ijtimoiy skrining.....	62
Illova-7. Aholining kafolat.....	66
Illova-8. MTT chegaralari fotosuratlari.....	69
Illova-9. Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasini jamoatchilik muhokamasi	70

**XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI**

QISQARTMALAR VA LUG'AT

AMIBM	Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv modeli
AMIBR	Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi
AMIBR	Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi
AMM	Atrof-muhit muhofazasi
AMTBL	Atrof-Muhit Ta'siri Bayonnomasi Loyihasi
AQNB	Arxitektura va qurilish nazorati bo'limi
ATB	Axborot boshqaruvi tizimi
AS	Amaliy siyosat
AOTX	Amalga oshirish va texnik xizmat ko'rsatish
AMB	Atrof-muhitni baholash
DEE	Davlat ekologik ekspertizasi
EIM	Ekologik va ijtimoiy muhofaza
IKB	Ish ko'lami bayonnomasi
JB	Jahon Banki
JMG	Jamoatchilik monitoringi gurushi
KHR	Ko'chirish harakat rejasi
KRAM	Ko'chirish rejasining asosiy modeli
LAOG	Loyihani amalga oshirish gurushi
LAOQ	Loyihani amalga oshirish qo'llanmasi
LT	Loyihalash tashkiloti
LZKSh	Loyihadan zarar ko'rgan shaxslar
MFY	Mahalla fuqarolar yig'ini
MM	Muhofaza mutaxassisni
MTT	Maktabgacha ta'lif tashkiloti
OIIB	Osiyo Infratuzilmaviy Investitsiya Banki
O'zH	O'zbekiston hukumati
QAM	Qayta aloqa mexanizmi
QF	Qishloq Fasilitatori
QM	Qishloq Muhandisi
QMQ	Qurilish me'yoriy qoidalari
QT	Qurilish tashkilotlari
QIRL	Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi
ShKChM	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi
ShQ	Shaharsozlik qoidalari
TAMMBR	Tarkibida azbestos mavjud material boshqaruv rejasi
TIA	Texnik-iqtisodiy asoslash
TLQ	Tuman loyiha qo'mitasi

UMUMIY MA'LUMOT

Loyihaning umumiy qoidalari

Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi (keyingi matnlarda - QIRL) O'zbekiston Respublikasining 5 (Farg'ona, Andijon, Namangan, Sirdaryo va Jizzax) viloyatlaridagi 21 tumanlarida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. QIRLning maqsadi asosiy infratuzilma sifatini yaxshilash va tanlangan qishloqlarda mahalliy boshqaruv jarayonlarini qo'llab - quvvatlashdir. Loyiha Jahon Banking Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA) va Osiyo infratuzilmaviy investitsiya banki (OIB) tomonidan moliyalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi loyihani amalga oshirish guruhi (LAOG) QIRL moliyalashtirish kelishuvida belgilanganidek, loyiha maqsadlariga erishish uchun umumiy mas'uliyat o'z zimmasiga oladi. LAOG, shuningdek, loyihaning rivojlanish maqsadlariga erishish uchun QIRL faoliyatini amalga oshirishda barcha tegishli Jahon banki ko'rsatmalari va tartiblariga rioya qilishni ta'minlaydi va O'zbekiston Respublikasi hukumati zimmasiga yuklatilgan boshqa majburiylarni bajarish uchun javobgardir.

Subloyiha

Subloyiha 8-sonli maktabgacha ta'lif tashkiloti (MTT) binosini qayta ta'mirlash. Subloyiha Qishloq fasilitatori (QF) va Qishloq muhandislari (QM) yordamida "Qayirma" Mahalla fuqarolar yig'ini (MFY) aholisining keng jamoatchilik ishtirokida ushbu subloyihasi tanlab olingan. Mazkur subloyiha Sirdaryo viloyati Xovos tumani xokimligining 2021 yil 14 sentyabrdagi 1/01-59- sonli bayoniga asosan ishlar olib boriladi (Ilova-1).

Subloyihaning manzili

Sirdaryo viloyati Xovos tumani "Qayirma" MFY Saxovat ko'chasi 8-sonli MTTda joylashgan. 8-son MTT hududi shimol va sharq tomondan ichki ko'cha bilan, janub tomondan uy-joy ob'ektlari bilan va g'arb tomondan bo'sh yer maydoni bilan chegaradosh. Obyekt hududida xech qanday sanoat/ishlab chiqarish obyekti hamda moddiy yoki tarixiy yodgorliklar ham mavjud emas.

Ob'ektdan eng yaqin joylashgan aholi turar joyi sharqiy yo'nalishda 25 metr masofada joylashgan.

XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI

Rasm 1. Rejalashtirilgan maktabning Google Earth ilovasidan olingan rasmi



Subloyiha tavsifi

8-sonli MTT binosi 1960 yilda qurilgan bo’lib, jami 90 nafar bolalar uchun mo’ljalangan. 8-sonli MTTning umumiy maydoni $1155,5 \text{ m}^2$ ni tashkil etadi, shundan $212,6 \text{ m}^2$ qurilish maydoni. “Qayirma” MFY Xovos tuman markazidan 18-20 km uzoqlikda joylashgan. MFYda jami 765 ta uy xo’jaliklari mavjuyd. Umumiy aholisi 4505 kishini (2230 ayollar, 2275 erkaklar) tashkil etadi. “Qayirma” MFYda jami bog’cha yoshidagi bolalar soni - 668 nafar, shundan bog’chaga qatnaydiganlar – 153 nafar va bog’chaga qatnamaydiganlar – 515 nafarni tashkil qiladi.

Ichimlik suvi manbai MFYdagi mavjud tizimga ulangan. Oqova suvlar bog’cha hududidagi xandakga tashlanadi. Binolarning isitish tizimi tabiiy gaz/ ko’mirdan foydalandi.

Loyiha toifasi

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7-sentyabrdagi "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida" 541-sonli qaroriga asosan subloyiha “4” toifaga mansub.

“Qayirma” MFYda 8-son MTT binosi qayta ta’mirlash subloyihasi uchun AMTBTAL ishlab chiqildi va Davlat ekologik ekspertizasining 2022 yil “11” yanvardagi 10/27-sonli ijobiy hulosasi olindi (Illova-2).

Jahon Bankining (JB) 4.01 amaliy siyosatiga (AS) muvofiq 8-son MTT binosi qayta ta’mirlash subloyiha “B” (kichik xavf) toifasiga tegishli. JB standartlarga rioya qilish maqsadida “Sirdaryo viloyati loyiha ishlab chiqarish boshqarmasi” MCHJ tomonidan AMIBR tayyorlanadi va LAOG/JB tomonidan ko’rib chiqilib tasdiqlanadi.

Loyihaning atrof-muhitga ta’siri

QIRL asosiy infratuzilma va xizmatlarni talab bo'yicha keng ko'lamli sarmoyalari bilan qo'llab-quvvatlaydi. Loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlari asosan ijobiy bo'lishi ko'zda tutilgan bo'lib, loyiha doirasidagi qishloqlarida aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash bilan bog'liq bo'ladi. Biroq, qurilish ishlari turli salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Atrof-muhit ta'siri o'z ichiga olishi mumkin: (a) chiqindilar bilan atrof-muhit ifloslanishi, shovqin, chang, yoqilg'i yonish mahsulotlari va chiqarish gazlar; (b) sog'liqni saqlash va xavfsizlik, va qurilish ishlari kelib chiqadigan boshqa muammolar; (c) oldini olish va yumshatish chora-tadbirlar natijasida yer osti va yer usti suv ifloslanishi oldini olish; (d) tuproq degradatsiyasi va ifloslanishi; va (e) qurilish ishlari davomida og'ir yuk mashinalari noto'g'ri ishlashi natijasida inson salomatligi uchun havflar. Ijtimoiy ta'sirlar yerni uchastkasini olish, yerdan foydalanish bo'yicha cheklovlar yoki ko'chirish, noqulay mehnat sharoitlari, jamoa salomatligi va xavfsizligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu ta'sirlar qurilish yoki rekonstruksiya ishlariga xos bo'lib, eng yaxshi qurilish amaliyotlari va/yoki tegishli yumshatish choralarini qo'llash orqali hal etilishi kutilmoqda.

Jamoatchilik muhokamalari

AMIBR loyihasi tasdiqlangandan so'ng, uni oshkor qilish maqsadida mahalliy aholi bilan jamoatchilik muhokamasi o'tkaziladi. Jamoatchilik muhokamalar mahalliy aholi va manfaatdor ishtirokida bo'lib o'tadi. Jamoatchilik muhokamalarda ko'tarilgan savol va masalalar AMIBR hujjatiga o'z aksini topadi. Jamoatchilik muhokamaning bayonnomasi AMIBRning yakuniy variantiga qo'shiladi va qaytada jamoatchilik e'tiboriga havola etiladi. AMIBR hujjati pudratchining tender hujjatlariga va pudratchi shartnomalariga ilova qilinadi. Pudratchi qurilish/qayta ta'mirlash ishchilarini mazkur AMIBRga asosan amalga oshiriladi.

Institutsional model

QIRLni moliyalashtirish kelishuvida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining loyihani amalga oshirish

guruhi (LAOG) loyiha maqsadlariga erishish uchun umumiylashtirishni o'z zimmasiga oladi.

LAOG Jizzah va Sirdaryo ofisi - Jizzah va Sirdaryo viloyatlariga biriktirilgan LAOGning hodimlari QIRL ijrosini ta'minlaydi. Shuningdek, hududiy atrof-muhit va ijtimoiy himoya bo'yicha mutaxassislar va texnik nazorat nozirlari AMIBRni amalga oshirilishini nazorat qilib, markaziy LAOGga bu bo'yicha oylik hisobot tayyorlaydilar.

Sirdaryo viloyat hokimligi - Viloyat hokimlklari viloyat darajada QIRL ning bajarilishini boshqarish va nazorat qilish uchun javobgardir. Bunga YaBXIK quyida tavsiflangan QIRLga xizmat ko'rsatilishini ta'minlashi va viloyat hokimiyatining tarkibiy bo'linmalarini tashkiliy masalalar va amalga oshirish muammolarini hal qilishda texnik yordam ko'rsatish uchun boshqarish kiradi.

Xovos tumani hokimligi - tuman miqyosida QIRL ning bajarilishini boshqarish va nazorat qilish uchun javobgar hisoblanadi. Har bir ishtirokchi tumanning tuman hokimi QIRL ni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun Tuman Loyiha Qo'mitasi (TLQ) ni tashkil etadi. TLQ tuman boshqaruv idoralari va kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning asosiy a'zolaridan iborat bo'ladi. Unga tuman hokimi raislik qiladi. TLQ quyidagilarga javobgardir: (i) QIRL ning maqsadlari va qoidalarini, shu jumladan, qishloqlarni tanlash mezonlari, muvofiq investitsiyalar, qatnashish uchun jarayonlar va amalga oshirish muddatlarini MFY larga yetkazish; (ii) QIRL da ko'rsatilgan choralar va tanlov mezonlari asosida QIRL da qatnashish uchun qishloqlarni tanlash; (iii) Qishloq Taraqqiyoti Rejasi (QTR)da QIRL tomonidan moliyalashtirish uchun taklif qilingan subloyihalarni ko'rib chiqish uchun MTG lar bilan ishlash. Bunda ko'rib chiqish ekspluatatsiya va texnik xizmat (ETX) ko'rsatish rejalarini tasdiqlash uchun va ushbu subloyihalar boshqa davlat dasturlarida rejalshtirilgan investitsiyalarni takrorlamasligi maqsadida amalga oshiriladi; (iv) tanlab olingan subloyihalar ro'yxatini subloyihalarni loyihalashtirish uchun viloyat hokimiyatiga YaBXIK uchun taqdim etish; va (v) viloyat hokimiylarini bilan birgalikda, kundalik ETX uchun tegishli tarmoq bo'limlariga QIRL tomonidan moliyalashtirilgan infratuzilmani topshirishga ko'maklashish.

"Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi - YaBXIK Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli qaroriga binoan tashkil etilgan. YaBXIK yagona xizmat ko'rsatuvchi organ bo'lib viloyat hokimiylariga xaridlar qiladi, boshqaruv va texnik xizmatlarni ko'rsatadi.

Mahalla fuqarolar yig'ini (MFY) - Ijroiya Qo'mitalari rais, kotib va maslahatchilardan iborat bo'ladi. Loyiha maqsadlari uchun MFY Ijroiya Qo'mitalari quyidagilarga javobgardirlar: (i) qishloqning rivojlanish jarayonidagi ehtiyojlarini tashqi manfaatdor tomonlarga, shu jumladan O'RH amaldorlari, idoralari va taraqqiyot bo'yicha faoliyat yurituvchi tashkilotlarga taqdim etish; (ii) TLQ larga QIRL ning yutuqlari to'g'risida hisobot berish; (iii) qishloq a'zolariga QIRL to'g'risida tushuncha olishga yordam

**XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI**

beradigan aloqa tadbirlariga ko’maklashish; va (iv) QF va QM larni barcha mahallalar va jamoatchilik guruh vakillari, shu jumladan ayollar, yoshlar va himoyaga muhtoj guruh vakillari ishtirok etadigan uchrashuvlarni tashkil etishda qo’llab-quvvatlash.

Jamoatchilik monitoringi guruhlari (JMG) - MFY yoki V-MTGdan mustaqil faoliyat yuritib, aholi darajasidagi jarayonlarni olib boradilar va QIRL da ishtirok etadigan turli ishtirokchilar pastdan yuqoriga hisobdor bo’lishini ta’minlaydilar. Bu orqali benefitsiarlar loyiha sifatini va davlat mablag’larini taqsimlash uchun mahalliy saylangan kengashlarni hisobdorligini, Qishloq taraqqiyot rejalarini shaffof va hisobdor vositalar yordamida boshqarish, shuningdek, ekologik va ijtimoiy xavfsizlik choralariga rioya qilish jarayonlarida ishtirok etadilar va nazorat qiladilar.

Jamoatchilik monitoringi guruhlarining maqsadi

- subloyihalar sifatini oshirish va korrupsiya xavfini kamaytirish;
- Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik choralariga rioya etilishini ta’minlash;
- MFY, V-MTG, aholi va boshqa manfaatdor tomonlar o’rtasida shaffoflik va hisobdorlikni yaxshilash;
- Tuzatish harakatlarini amalga oshirish uchun teskari aloqa mexanizmini yaratish;
- Jamoalarning salohiyati va subloyihalarni monitoring qilish ko’nikmalarini oshirish.

Pudratchi – qurilish ishlarini boshidan oxirigacha amalga oshiruvchi tashkilot. Tashkilot O’zbekiston Respublikasining barcha normativ talablariga muvofiq faoliyat olib boradi va AMIBR hujjatida belgilangan talab va chora-tadbirlarning bajarilishini ta’minlaydi.

“Sirdaryo viloyati loyiha ishlab chiqarish boshqarmasi” MCHJ – loyiha oldi hujjatlarni tayyorlaydi va ekspertizaga taqdim etadi, hamda dastlabki AMIBR ishlab chiqib LAOGga taqdim etadi. AMIBRning jamoatchilik muhokamasida ishtirok etadi.

Qonun va qarorlar

Milliy Qonunchilik:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55, 93, 100 moddalari. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55 - moddasida: yer, uning yer osti boyliklari, suv, flora va fauna va boshqa tabiiy resurslar milliy boyliklar bo’lib, davlat tomonidan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga;

2. 1992 yil 9 dekabrdagi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonun (18.04.2018 da yangilangan) atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi, barqaror rivojlanishni va muayyan tamoyillarni, shu jumladan, Davlat ekologik ekspertizasini ta’minlaydi (DEE). "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonunning 12-moddasida: O’zbekiston Respublikasi rezidentlari tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, tabiiy resurslarga ehtiyyotkorona munosabatda bo’lishga va ekologik talablarga rioya qilishga majburdirlar. Qonunda qayd etilganidek, iqlimni global

XOVOS TUMANI "QAYIRMA" MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA'MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI

o'zgarishlardan himoya qilish uchun tadbirkorlik sub'ekti issiqxona gazlari chiqindilari bilan bog'liq cheklovlarga rioya qilishi, shuningdek, ushbu emissiyalarni yumshatish choralarini ko'rishi lozim.

3. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun 6 may 1993 (2018 yil 23 iyulda yangilangan) suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv resurslarini muhofaza qilish, salbiy ta'sirlar va milliy qonunchilikka ryoa qilishning oldini olish va kamaytirish imkonini beradi; qonun barcha tabiiy va huquqiy shaxslarning suv omborlari, qor va muz qoplami, muzliklar, doimiy qor qoplami sanoat, ichki va boshqa chiqindilar va chiqindilarning oldini olish va chiqindilarning oldini olish uchun javobgarligini ta'minlaydi.

4. 1997-yil 26-dekabrdagi "O'simliklarni himoya qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun (2016-yil 21-sentabrda yangilangan) tabiiy sharoitda o'sadigan o'simlik (o'simlik) larni hamda ularni tiklash va genetik saqlash uchun yetishtirilgan yovvoyi o'simliklarni himoya qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi;

5. 1996-yil 27-dekabrdagi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda (2017-yil 14-sentabrda yangilangan) atmosfera havosining tabiiy holatini saqlash masalalari belgilangan; davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish.

6. "Chiqindilar to'g'risida" gi qonuni 2002 yil (yangilangan 10.10.2018 yil) chiqindilarni boshqarishni tartibga soladi va atrof-muhitni tekshirish, muvofiqlashtirish, baholash va chiqindilarni yo'q qilish mumkin bo'lgan joylar uchun muayyan parametrlarni o'rnatish uchun Davlat ekologik qo'mitasiga vakolat beradi.

7. "Ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi qonun (2001 yil) (14.09.2018 da yangilangan) atrof-muhit va inson salomatligiga ta'sirni majburiy tekshirishni nazarda tutadi, shuningdek, ekspertiza o'tkazish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi;

8. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonun (2013) atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ekologik nazoratning asosiy vazifalari ekologik qonun hujjatlarining buzilishini oldini olish, aniqlash va bostirish; atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan irratsional foydalanish, fuqarolar hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan ekologik vaziyat va omillar monitoringi.

9. "Milliy xavfsizlik konsepsiysi to'g'risida"gi qonun (1997), ekologik xavfsizlikga erishishning asosiy tuzilishini ta'minlaydi va hokazo.

10. Tabiatni muhofaza qilish, ish o'rinalarini tashkil etish, shu jumladan qurilish maydonchalarida me'yoriy hujjatlar.

ISH KO'LAMI VA ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY MUHITGA TA'SIRI.

Tanlangan ob'yeqt umumiy maydoni 1155,50 m² tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Sirdaryo viloyatining qurilsh sohasida hududiy nazorat inspeksiyaning 2021 yil 19 oktyabrdagi Texnik xisobotiga ko'ra, 8-sonli MTT hududidagi mavjud binolar yaroqsiz deb topilgan (Ilova-3) va binolarning to'liq buzilishi rejalashtirilgan.

8-sonli MTT hududida qurilish/ta'mirlash ishlarini quyidagi meyoriy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi:

- O'zR MTM "Maktabgacha ta'lif ishlab chiqqan" ta'lif muassasalari uchun Idoraviy qurilish me'yordi IKN 03-19-son
- QMQ 2.08.02-09 * "Jamoat binolari va inshootlari"
- SHNQ 2.07.01-03* "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish va qurishni rejalashtirish"
- SHNQ 2.01.02-04 "Bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi".
- SHNQ 4.13.53-05 "Bolalar maktabgacha ta'lif muassasalari"
- SanPIN "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lif muassasalarining ish tartibini saqlash, qurish va tashkil etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari".

8-sonli MTT hududida qurilish ishlarini amalga oshirish uchun asos: Arxitektura va rejalashtirish topshirig'i (2022 yil 09 martdag'i 1724-1724235-38276-son), Qurilish vazirligining "Ob'ektni qayta ta'mirlash uchun ruxsatnomasi (2022 yil 03 martdag'i 1724235-39622-son), Shaxarsozlik hujjatlari ekspertizasi DUK ning 36327-sonli ekspert xulosasi va Xovos tumani Davlat xizmatlari markazining 49032700-sonli xati (Ilova-4).


MTT hududda quyidagi qurilish ishlari amalga oshiriladi:

- 2 qavatlik 90 o'rinni bino (4 ta guruh, musiqa xonasi, hodimlar xonasi, tibbiyot xonasi, oshxona, xojathona va kir yuvish honasi)
- 2 ta Soyabon (besedka)
- 50 m³ hajmli xandak (vigureb)
- Yong'inga qarshi suv hovzasi (Pojarniy rezervuar) - 100 m³
- Hojatxona
- Qorovulkxona (KPP)
- Nasos uchun uycha va darvoza, to'siqlar o'rnatiladi.


Ob'ektni qurishda tayyor beton, qurilish ishlari uchun tayyor oxak, tayyor asfalt, tayyor qurilish bo'yoqlari, gips, sement, shag'al, oxak, payvandlash ishlarida payvandlash elektrodlari, yog'och materiallari va qo'shimcha qurilish materiallar ishlatiladi.

**XOVOS TUMANI "QAYIRMA" MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA'MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI**

Rasm 2. Bog'cha bosh rejasi




Rasm 3. Eskiz ko'rinishi



XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY 8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI

Rasm 4. 8-sonli MTT hududning topasyomka xaritasi



				Заказчик: "Сирдарё вилоят лойиха ишлаб чикариш бошкармаси" МChJ.	дог.№138/21
				Объект: Реконструкция ДОУ №8 в МФЙ Кайирма Хавастском районе Сырдарьинской области	
Должность	Ф.И.О.	Подпись	Дата		Стадия
Директор	Мирзахмедов А.			Топографическая съемка Масштаб 1:500	Лист
Нач.отдела	Нурматов И.			Сист. координат условная	Листов
Топограф	Шойзаков У.			Сист.высот. условная	1
					1
				'Сирдарё вилоят лойиха ишлаб чикариш бошкармаси" МChJ. (ООО СППУ)	

Loyihaning atrof-muhitga ta'siri

QIRL asosiy infratuzilma va xizmatlarni talab bo'yicha keng ko'lamli sarmoyalar bilan qo'llab-quvvathaydi. Loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlari asosan ijobiy bo'lishi ko'zda tutilgan bo'lib, loyiha doirasidagi qishloqlarida aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash bilan bog'liq bo'ladi. Biroq, qurilish ishlari turli salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Atrof-muhit ta'siri o'z ichiga olishi mumkin: (a) chiqindilar bilan atrof-muhit ifloslanishi, shovqin, chang, yoqilg'i yonish mahsulotlari va chiqarish gazlar; (b) sog'lijni saqlash va xavfsizlik, va qurilish ishlari kelib chiqadigan boshqa muammolar; (c) oldini olish va yumshatish chora-tadbirlar natijasida yer osti va yer usti suv ifloslanishi oldini olish; (d) tuproq degradatsiyasi va ifloslanishi; va (e) qurilish ishlari davomida og'ir yuk mashinalari noto'g'ri ishlashi natijasida inson salomatligi uchun havflar. Ijtimoiy ta'sirlar yerni uchastkasini olish, yerdan foydalanish bo'yicha cheklovlar yoki ko'chirish, noqulay mehnat sharoitlari, jamoa salomatligi va xavfsizligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu ta'sirlar qurilish yoki rekonstruksiya ishlariga xos bo'lib, eng yaxshi qurilish amaliyotlari va/yoki tegishli yumshatish choralarini qo'llash orqali hal etilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Jahon Bankining amaliy siyosati (AS) 4.01 "Ekologik baholash" ga muvofiq, tavsiya etilgan yumshatish choralarini, monitoring rejasini va hisobot talablari, ularni amalga oshirish uchun institutsional mexanizmlar bilan subloyiha uchun AMIBR tayyorlanmoqda. Har qanday yer va ko'chirish ta'siri Jahon banki AS muvofiq tayyorlangan QIRL loyiha qayta joylashtirish siyosati doirasida muvofiq hal qilinadi.

Ekologik ta'sirlar

Skirining – qurilish ishlari boshlanishdan oldin loyiha oldi hujjalish jarayonida subloyihaning atrof-muhitga ta'sirini o'rganish hamda aniqlash maqsadida “Qoraqum” MFYning V-MTG azolari (manfaatdorlar) va QM/QF bilan 8-MTT hududiga chiqib 1-shakili to'ldirildi va LAOGning hududiy muhofaza mutahassisini (MM) taqdim etilgan. Hududiy MM mazkur 1-shalga asosan 2-shaklni to'ldiradi (Illova-5) va JB hamda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit muhofaza qilish qonun talablarini inobatga olib subloyiha uhcun zarur hujjalarni belgilaydi, hamda Loyihachi tashkilotning shartnomalariga ilova qilinadi. Loyihachi tashkilot hujjalarni tayyorlab JB/LAOG ga va davlat ekologik ekspertizaga hujjalarni taqdim etadi.

Amalga oshirilayotgan ob'ektning ekologik xavfsizligi uchun atrof-muhitga ta'sirini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tuzish lozim.

Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun barcha chora-tadbirlar quyidagi jadvalda keltirilgan (jadval – 1).

LAOGning hududiy MM, mahalliy hokimliklar, “Qoraqum” MFY aholi jamoat vakillari va Sirdaryo viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bosh boshqarmasi qurilish oldi va qurilish bosqichlarida nazorat olib borishadi. Subloyiha to'liq

**XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI**

bitib foydalanishga topshirgan so’ng “Qoraqum” MFY aholi jamoat vakillari tomindan nazorat amlaga oshiriladi.

Ijtimoiy Ta’sirlar

Ko’chirish va ijtimoiy skrining

Skrining natijalari shuni ko’rsatadiki, yer olish talab qilinmaydi (Illova-6). 8-son MTT yaqinida yashovchi aholining ushbu hudud ilgari bog’chaga tegishli bo’lganligi haqidagi kafolat xatlari olingan (Illova-7). Xech qanday xususiy mulkka ta’sir va doimiy jismoniy ko’chirish holatlari aniqlanmadи.

Boshqa ehtimoliy ta’sirlar quyidagilar:

- Ijtimoiy masalalarning umumiyy to’plami. Qurilish faoliyatining sezilarli ijtimoiy ta’siri ko’zda tutilmagan.
- Ko’chirish muammolari. Subloyiha uchun yer sotib olish yoki yer ajratishni nazarda tutmaydi va xususiy yoki ijaraga olingan qishloq xo’jaligi yerlari va xususiy aktivlar yoki korxonalarga doimiy ta’sir ko’rsatmaydi. Subloyiha qurilish ishlari aholining mol-mulki, ekinzor va daromadlariga ta’sir ko’rsatmaydi.
- Qurilish mobaynida bo’sh ish o’rinlari yaratilishi imkoniyatlari bilan bog’liq ijobiy ta’sir. Qurilish vaqtida ish paytida cheklangan.
- Shovqin, atrof muhit ifloslanishi va tebranish bilan bog’liq sog’liq muammolari. Cheklangan va vaqtinchalik.
- Yo’l harakatining vaqtincha chekshanishi. Mahalliy transport harakatiga subloyiha bilan bog’liq transport faoliyati cheklangan va vaqtinchalik ta’sir ko’rsatishi mumkin.
- Kommunal manbaalarga vaqtincha ta’sir. Bog’cha huididida elektr tarmoqlari, tabiiy gaz va ichimlik suvining ularsha vaqtinchalik o’chirilishi.
- Xavfsizlik va kirish imkoniyati. Qurilish hududiga yaqin bo’lgan hududlarga kirish chegaralanishi va to’xtatilishi natijasida transport vositalari va piyodalar uchun potentsial xavflar bo’lmaydi. Ushbu subloyiha katta ijtimoiy xavflar kutilmaydi. Subloyiha ostida rejalashtirilgan tadbirlar ko’proq ijobiy ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.

Strategiyaning ajralmas qismi loyihadan zarar ko’rgan jamoalar va shaxslarning fikrlaridan xabardor bo’lish va hisobga olishdir. Shunday qilib, ijtimoiy xavf-xatar/nizolarning oldini olishning asosiy vositalaridan biri Shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmi bo’lib, u orqali ma’lumotlarni olish va tezkor ko’rib chiqish imkoniyati yaratiladi.

AMIBRda ko’rsatilgan chora-tadbirlarning to’g’ri amalga oshirilishini ta’minalashda hududiy atrof-muhit va ijtimoiy himoya mutaxassislari umumiyy nazoratga javobgar bo’ladilar.

Yer uchastkasini olish va ko’chirish ta’siri

Loyiha doirasida rasmiy va norasmiy (yerlarni/ tuzilmalarni sotib olish natijasida)

**XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI**

ta'sir qiladigan doimiy jismoniy ko'chirish yoki boshqa tegishli holatlariga olib keladigan hech qanday faoliyat moliyalashtirilmaydi.

Loyiha 1600 m² maydonda joylashgan. Tanlangan subloyiha sifatida eski MTT bog'cha binosini qayta ta'mirlash ishlari. Hudud eski MTTga tegishli. Qurilish ishlari bog'chaning hududida amalga oshiriladi, hech qanday qo'shimcha yer talab qilinmaydi.

Subloyihani amalga oshirish uchun ajratilgan hududda daraxt va ko'chatlarni kochirish yoki kesish ishlari amalga oshirilmaydi. Qurilish hududida ekinzorlar, darxatlar va boshqa turdag'i o'simlik ob'ektlari mavjud emas.

Har qanday qurilish jarayonida tasodifiy zarar va ta'sirlar pudratchi tashkiloti tomonidan to'liq tiklanadi yoki qoplanadi.

**QURILISH PAYTIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRLAR VA ZARUR
YUMSHATUVCHI CHORA-TADBIRLAR**

Qurilish bosqichi

Subloyiha qurilish ishlari davomida atrof-muhitga bir qator ta'sir kuzatiladi:

- atmosfera havosi ifloslanishi (chang, payvandlash, qurilish texnikalaridan tashhalmalari, yerlarni qazishda, beton quyishda)
- qurilishda/ta'mirlashda chiqindilarning hosil bo'lishi (maishiy, metal, mis, yog'och, platsik va boshqa qurilish chiqindilari)
- Daraxtlarni, butalarni kesilishi / ko'chirilishi;
- yer osti va yer usti suvlarining ifloslanishi
- tuproqning unumdon qatlami ifloslanishi

Subloyiha qurilish ishlari davomida bir qator ijtimoiy ta'sir kuzatiladi:

- Ichki yo'llarda avto-transport vositalarning vaqtinchalik harakatlar cheklovi;
- Piyodalarning harakatlanishiga cheklovlar;
- Aholining uy-joy, mol-mulkiga, ekinzoriga zarar yetkazishi
- Noqonuniy egallab olingan huddud va/yoki noqonuniy bino va inshoatlarga ta'siri
- Shovqin;
- Mehnat muhofazasi
- yer osti va yer usti suvlarining ifloslanishi
- tuproqning unumdon qatlami ifloslanishi

XOVOS TUMANI "QAYIRMA" MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA'MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI

EKOLOGIK / IJTIMOIY SKRINING

Subloyiha faoliyati quyidagilarda n birini o'z ichiga oladimi?	Faoliyati	Holati	Ko'rsatmalar
	Umumiy shartlar, ishchilar xavfsizligi	Ha	Agar " Ha" bo'lsa, quyida 0 bo'limiga qarang
	Qurilish / qayta ta'mirlash ishlari	Ha	Agar " Ha" bo'lsa, quyida A bo'limiga qarang
	Drenaj tizimining sirtiga ta'siri	Yo'q	Agar " Ha" bo'lsa, quyida B bo'limiga qarang
	Ijtimoiy skrining	Ha	Agar " Ha" bo'lsa, quyida C bo'limiga qarang
	Kompleks tekshiruv hisoboti	Ha	Agar " Ha" bo'lsa, quyida D bo'limiga qarang
	Mehnat boshqaruvi	Ha	Agar "Ha" bo'lsa, quyidagi E bo'limiga qarang
	Zaharli materiallar	Ha	Agar " Ha" bo'lsa, quyida F bo'limiga qarang
	O'simlik dunyosi	Yo'q	Agar " Ha" bo'lsa, quyida G bo'limiga qarang
	Yo'l harakati va piyodalar xavfsizligi	Ha	Agar "Ha" bo'lsa, quyida H bo'limiga qarang

1-Jadval

Faoliyat	Parametr	YUMSHATISH CHORALARI NAZORAT RO'YXATI
Umumiy Shartlar	Xabarnoma va ishchi xavfsizligi	(a) Mahalliy qurilish va atrof-muhit bo'yicha inspektorlari va jamoalar kelgusida bo'ladigan faoliyatdan xabardor qilinadi

		<ul style="list-style-type: none"> (b) Jamoat ommaviy axborot vositalarida tegishli xabar orqali ishlar xabardor qilinadi va / yoki ommaviy saytlar da (ishlari sayt, shu jumladan,) (c) Qurilish va/yoki qayta qurilish uchun barcha qonuniy zaruriy ruxsatnomalar olingan (d) Pudratchi (quruvchi) barcha ishlar xavfsiz va intizomli tarzda amalga oshirilishiga hamda aholi va atrof -muhitga ta'sirini minimallashtirish uchun rasmiy ravishda rozi bo'ladi. (e) Ishchilarning shaxsiy himoya vositalari xalqaro amaliyotga mos keladi (har doim qattiq kiyimlar, kerak bo'lganda niqob va himoya ko'zoynaklari va xavfsizlik etiklari). (f) Qurilish hududi tegishli belgilar bilan belgilash, ishchilar asosiy qoidalarga rioya qilishlari to'g'risida xabardor qiladi. (g) Qurilish tarkibida asbestos mavjud materiallardan foydalanmang (h) qurilsih/ta'mirlash hududda mexnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ma'sul shaxs tayinlash
A. umumiyyat qayta qurish va / yoki qurilish faoliyatini	Atmosfera havosi Sifati	<ul style="list-style-type: none"> (a) Qazish paytida (agar qazish) changni nazorat qilish choralari qo'llaniladi, masalan, erni purkash va namlash orqali suv sepiladi (b) Qurilish / buzishda hosil bulgan qoldiqlarni, qazilgan tuproq va agregatlari maxsus hududda saqlanadi, changni kamaytirish maqsadida suv sepib turish lozim (c) Atrofdagi muhitga changni kamaytirish maqsadida chiqinchilarni maxsus hududda va usti yopiq idishda yoki qoplangan holda saqlang (d) Pnevmatik burg'ulash yoki qoplamali va poydevorli buzish vaqtida changni suv bilab purkash orqali bostiriladi (e) Atrofdagi muhit changni kamaytirish uchun tuproq va qoldiqlardan tozalamadi (f) Qurilish hududidan qurilish / chiqindi materiallarining yoqish mumkin emas (g) Barcha texnikalar tegishli qoidalarga rioya qiladi va maxsus hududda saqlanadi va xizmat qiladi va qurilish hududidan tashqarida ishlatilamaydi
	Shovqin	<ul style="list-style-type: none"> a) qurilish/ta'mirlashda atrfoga taraladigan shovqin darajasi belgilangan meyorlarga nisbatan nazorat qiling b) Qurilish shovqini ruxsatnomada kelishilgan vaqt bilan cheklanadi. c) Ish paytida generatorlar, havo kompressorlari va boshqa uskunalarining ishslash davomida qopqog'inи yopilishi va

XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI

		asbob -uskunalar turar joylardan iloji boricha uzoqroqda joylashtirilishi kerak.
	Suv	<p>(a) chiqindilarni/ oqova suvlarni kanalizasiya tarmoqg'iga / yaqin atrofdagi daryolarga to'g'tidan-to'g'ri oqizishni oldini oling</p> <p>(b) oqova suvlarni ochiq suv havzalarga oqib suvning xiralashuviga olib kelmaslik uchun to'siqlar o'rnating</p>
	Chiqindilarni boshqarish	<p>a) Qazish, buzish va qurilish ishlari natijasida kutilayotgan barcha asosiy turdag'i chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish usullarini va saqlash maydonlarini aniqlang.</p> <p>b) Qurilish va buzishda hosil buladigan chiqindilarni organik, suyuq va kimyoviy chiqindilardan saralab ajratiladi va tegishli idishlarda saqlanadi.</p> <p>c) Qurilish chiqindilari litsenziyaga ega tashkilot tomonidan olib ketiladi va yo'q qilinadi</p> <p>d) Chiqindilarni yo'q qilinganligi to'g'risidagi yozuvlar chiqindilarni boshqarish uchun dalil sifatida saqlanadi</p> <p>e) Iloji boricha pudratchi hosil bulgan qurilish chiqindilarini (quruvchi) qayta ishlatadi (asbest tarkibidan tashqari).</p>
B. Drenaj tizimining sirtiga ta'siri	Suv sifati	<p>a) er osti suvlarning tartibga solinmagan holda olinishi, texnologik suvlar, tsement shamlari yoki boshqa ifloslangan suvlarning er osti yoki qo'shni daryolarga tashlash mumkin emas; Pudratchi suv chiqarish va umumiyoq oqava suv tizimiga tartibga solinishi uchun barcha zarur litsenziyalar va ruxsatnomalarni oladi.</p> <p>b) drenaj tizimlari o'rnatiladi va qurilish ishlari natijasida tabiiy oqimlar, daryolar, suv havzalarini ko'llarni loy bilan ifoslantirmasligi, to'sib qo'ymasligi yoki boshqa tarzda salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga e'tibor beriladi.</p> <p>c) yoqilg'i, moylash materiallari va boshqa toksik yoki zararli moddalarning to'kilishining oldini olish va ularga qarshi choralar ko'rildi.</p> <p>d) Qurilishda texnika va mashinalari faqat suv oqimi tabiiy er usti suv havzalarini ifoslantirmaydigan belgilangan joylarda yuviladi</p>
C. Ijtimoiy skrining	Ijtimoiy skrining shakli	<p>a) Tegishli mandaatdor tomonlar bilan suhbat</p> <p>b) Uchrashuvlar bayonnomasi</p>
D. Kompleks tekshiruv hisoboti		<p>a) Agar yerni musodara qilish kutilmagan bo'lsa, biroq talab qilinsa yoki qonuniy / noqonuniy yerdan foydalanuvchilarning daromadidan mahrum bo'lishi kutilmagan, lekin yuzaga kelishi mumkin bo'lsa, darhol Bankning loyiha bo'yicha guruh rahbariga murojaat qilinadi.</p>

XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY

8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI

		<p>b) Ko'chirish harakat rejasi amalga oshirilishidan oldin Bank tasdig'ini olish uchun yuboriladi.</p> <p>c) Ko'chirish va ijtimoiy skrining shakli, kompleks tekshiruv hisoboti,</p>
E. Mehnat boshqaruvi	Etika va kasbiy xulq-atvor kodeksi	<p>a) imzolangan shartnomalar va xulq -atvor kodeksi</p> <p>b) ishchilarning hujjatlarini tekshirish</p> <p>c) mehnat oqimi, OIV/OITS</p> <p>d) pudratchi va ishchilarni xabardor qilish. Bunga mehnat, genderga asoslangan zo'ravonlik, jinsiy ekspluatatsiya, majburiy va bolalar mehnati va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa ta'sirlar kiradi. Shuningdek, yumshatish/oldini olish choralarini o'z ichiga oladi.</p> <p>e) jamoatchilik bilan uchrashuvni tashkil qilish ishchilar uchun maxsus shikoyatlat va murojaatlar mexanizmi</p>
F. Zaharli materiallar	Toksik / xavfli chiqindilarni boshqarish	<p>a) Barcha xavfli yoki toksik moddalarni vaqtincha xususiyatlari va ishlov berish ma'lumotlari yozilgan xavfsiz idishlarda vaqtincha saqlanadi.</p> <p>b) Xavfli moddalarning konteynerlari to'kilmaslik havfini inobatga olib himoyalangan idishga saqlanishi kerak</p> <p>c) Chiqindilar maxsus litsenziyaga ega tashkilot tomonidan tashiladi va litsenziyalangan ob'ektga joylashtiriladi.</p> <p>d) Tarkibida toksik yoki erituvchilar yoki qo'rg'oshin moddali bo'yoqlar ishlatilmaydi</p>
G. Zarar ko'rgan o'rmonlar, botqoqlar va / yoki himoyalangan hududlar	Ekotizimni muhofaza qilish	<p>(a) qurilish ishlari yaqinidagi katta daraxtlardan inventarizatsiya qilinadi, katta daraxtlar to'siq bilan o'raladi, ularning ildiz himoyalananadi va daraxtlarga zarar etkazilishining oldini oladi. Yashil maydonlarning shikastlanishiga va ularning ruxsatsiz kesilishiga yo'l qo'yilmaydi;</p> <p>(b) Daraxtlarni kesish Davlat ekologiya qo'mitasining mahalliy organlari bilan kelishiladi. Daraxtlarni kesish bilan bog'liq iqtisodiy zararlar (agar mavjud bo'lsa), daraxtlarni kesishdan oldin KRAM loyihasiga muvofiq kompensatsiya qilinadi.</p>
H. Yo'l harakati va piyodalar xavfsizligi	Qurilish faoliyati natijasida jamoat transporti va piyodalarga bevosita xavf	<p>a) Milliy qoidalarga muvofiq, Pudratchi qurilish maydonchasining to'g'ri himoyalanishini va qurilish bilan bog'liq harakatni tartibga solishni ta'minlaydi. Bu o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ko'satkichlar, ogohlantirish belgilari, to'siqlar va yo'l harakati yo'nalishlari: qurilish hududi aniq ko'rinish turadi va aholi barcha mumkin bo'lgan xavflar to'g'risida ogohlantiriladi. - Harakatini boshqarish tizimi va xodimlarni o'qitish, ayniqsa, qurilish hududiga kirish va yaqin atrofdagi

**XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI**

		<p>tirbandlik uchun. Qurilish harakati xalaqit beradigan hududdan piyodalar uchun xavfsiz o'tish joylari ta'minlash.</p> <ul style="list-style-type: none">- Ish vaqtini mahalliy harakatlanish tartibiga moslashtirish, masalan, gavjum paytlarda yoki chorva mollari harakatlanadigan paytlarda transport/texnika harakatlarini cheklash- Agar kerak bo'lsa, jamoatchilik xavfsiz o'tishi uchun saytdagi o'qitilgan va ko'rindigan xodimlar tomonidan harakatni faol boshqarish- Qurilish vaqtida barcha qo'shni hududdagi ofis binolari, do'konlar va turar joylarga xavfsiz va uzluksiz kirishni ta'minlash
--	--	---

Eslatma: *Qurilish jarayonida atrof-muhitga, inson salomatligiga va ularning mol-mulkiga yetkazilgan har qanday ko'zda tutilmagan* zarar/ta'sir PT tomonidan qoplanadi. Shuningdek, PT taaluqli barcha talab va majburiyatlar PT bilan tuziladigan shartnomalarda aks ettirligan.*

PT loyiha bilan bog'liq har qanday baxtsiz hodisalar yoki nohush holatlar to'g'risida darhol BLAOGga xabar beradi.

* - AMIBR nazorat ro'yxati hujjatida ko'rsatib o'tilgan zarar/ta'sirlardan mustasno

XOVOS TUMANI “QAYIRMA” MFY
8-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BINOSINI QAYTA TA’MIRLASH
ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY BOSHQARUV REJASI

EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA’SIRNI YUMSHATISH REJASI

2-Jadval

Bosqich	Ta'sir va xavflar	Yumshatuvchi chora-tadbirlar	Amalga oshirish uchun mas'ul	Ish faoliyatini monitoring qilish bo'yicha mas'ul (ishtirok etish tartibida)
Umumiylar qurilish ishlari	Atrof-muhit			
Qurilishg a cham bolgan bosqich	Umumiy qoidalar	<ul style="list-style-type: none"> - qurilish ishlarini O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilsih qonunchiligi va Jahon Banki talablariga to'liq rioya qilgan holda bajarish - Davlat ekologik ekspertizasi, shuningdek, Atrof -muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasidagi shartlar va chorralarga rioya etilishini ta'minlash - ekologik tadbirlarning bajarilishini ta'minlash - LAOGga har oylik hisobotlarni taqdim etishni ta'minlash 	Pudratchi Subpudratchi	YaBXIK, LAOG
